



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriiddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MOLIYAVIY AKTIVLAR BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Yakubova Shamshinur Shuxratovna, Rasulova Ziyoda

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ РЫНКА ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ АКТИВОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО РАЗВИТИЯ

Якубова Шамшинур Шухратовна, Расулова Зиеда

THE CURRENT STATE OF THE DIGITAL FINANCIAL ASSETS MARKET IN UZBEKISTAN AND THE NECESSITY OF ITS DEVELOPMENT

Shamshinur Yakubova, Ziyoda Rasulova

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy aktivlar (RMA) bozorining shakllanish jarayoni, hozirgi rivojlanish darajasi va istiqbollari kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli aktivlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, investitsiya muhitiga ta'siri, moliyaviy tizim barqarorligi va kapital oqimlarini boshqarishdagi roli keng yoritilgan. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi, fintech sektorining rivojlanishi hamda davlat tomonidan olib borilayotgan raqamli siyosatning ahamiyati baholangan. Maqolada statistik va analitik yondashuv asosida RMA bozori dinamikasi tahlil qilinib, uning afzalliklari, iqtisodiy samaradorligi va mavjud xatarlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy aktivlar bozori O'zbekiston iqtisodiyotida muhim segmentga aylanib, investitsiya faolligini oshirish, moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallastirishda katta imkoniyatlarga ega.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy aktivlar, kriptoaktivlar, blokcheyn, fintech, investitsiya, raqamli iqtisodiyot, kapital oqimi, volatillik, kiberxavfsizlik, regulatsiya, innovatsiya

Аннотация: В данной статье проведён комплексный научный анализ процесса формирования, текущего состояния и перспектив развития рынка цифровых финансовых активов (ЦФА) в Республике Узбекистан. В исследовании подробно рассмотрена роль цифровых активов в национальной экономике, их влияние на инвестиционный климат, устойчивость финансовой системы и управление потоками капитала. Особое внимание уделено внедрению технологий блокчейн, развитию сектора финтех, а также значению государственной политики в сфере цифровизации. На основе статистического и аналитического подходов проанализирована динамика рынка ЦФА, выявлены его преимущества, экономическая эффективность и существующие риски. Результаты исследования показывают, что рынок цифровых финансовых активов становится важным сегментом экономики Узбекистана, способствующим росту инвестиционной активности, диверсификации финансовой системы и ускорению инновационного развития.

Ключевые слова: цифровые финансовые активы, криптоактивы, блокчейн, финтех, инвестиции, цифровая экономика, потоки капитала, волатильность, кибербезопасность, регулирование, инновации

Abstract: This article provides a comprehensive scientific analysis of the formation, current state, and development prospects of the digital financial assets (DFA) market in Uzbekistan. The study examines the role of digital assets in the national economy, their impact on investment activity, financial system stability, and capital flows. Special attention is given to the implementation of blockchain technologies, fintech sector development, and the role of government policies such as the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy. Based on statistical and analytical approaches, the dynamics of the DFA market are evaluated, highlighting its advantages, economic efficiency, and associated risks. The findings indicate that the DFA market is becoming a key segment of the national economy, contributing to increased investment activity, financial diversification, and innovation-driven growth.


Keywords: digital financial assets, crypto assets, blockchain, fintech, investment, digital economy, capital flow, volatility, cybersecurity, regulation, innovation

**KIRISH**

So'nggi o'n yillikda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida moliyaviy tizimda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, raqamli moliyaviy aktivlar bozori an'anaviy moliya institutlariga muqobil mexanizm sifatida shakllanib, global kapital harakati va investitsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, iqtisodiyotning

barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mazkur jarayonning asosiy yo'nalishlarini belgilab berib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilgan.



1-rasm. O'zbekistonda RMA bozori rivojlanish darajasi⁶⁰

Raqamli moliyaviy aktivlar bozori iqtisodiyotda yangi investitsion instrument sifatida shakllanib, kapitalni jalb etish va uni samarali taqsimlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu aktivlar orqali investitsiya jarayonlari tezlashadi, moliyaviy operatsiyalar xarajatlari kamayadi va shaffoflik darajasi oshadi. Shu bilan birga, raqamli aktivlar xalqaro moliyaviy tizim bilan integratsiyani kuchaytirib, O'zbekistonning global kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, raqamli moliyaviy aktivlar bozori innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilib, IT sektor, startaplar va fintech kompaniyalar faoliyatini rag'batlantiradi. Bu esa iqtisodiyotning bilimga asoslangan modelga o'tishini tezlashtiradi. Shu sababli, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda RMA bozori holatini chuqur o'rganish va uning rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli moliyaviy aktivlar bozorining nazariy va amaliy asoslari bir qator xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Nakamoto (2008) tomonidan ishlab chiqilgan blokcheyn texnologiyasi konsepsiyasi markazlashmagan moliyaviy tizimlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi [1]. Ushbu yondashuv moliyaviy operatsiyalarni markaziy institutlarsiz amalga oshirish imkonini yaratdi.

Shuningdek, Don Tapscott va Alex Tapscott (2016) o'z tadqiqotlarida blokcheyn texnologiyasini "ishonch protokoli" sifatida baholab, uning nafaqat moliyaviy tizimda, balki butun iqtisodiyotda tub o'zgarishlarga olib kelishini asoslab beradi [9]. Mualliflarning fikricha, blokcheyn vositachilarsiz

ishonchli tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini yaratib, yangi iqtisodiy modelni shakllantiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotida raqamli aktivlar global investitsiya bozorida muhim o'rin egallayotgani va ularning kapital jalb qilishdagi roli ortib borayotgani ta'kidlanadi [2]. Xalqaro valyuta jamg'armasi esa raqamli aktivlarning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilib, ularning yuqori volatilligi bilan bir qatorda innovatsion salohiyatini ham qayd etadi [3].

Jahon banki tadqiqotlarida blokcheyn texnologiyalarining moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli alohida ta'kidlanib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratayotgani ko'rsatib o'tilgan [4]. Yevropa markaziy banki hisobotida esa kriptoaktivlar bozori investitsiya portfelli tarkibida tobora muhim o'rin egallayotgani qayd etiladi [5].

Shuningdek, Arner va boshqalar (2017) fintech texnologiyalarining rivojlanishi moliyaviy tizimni tubdan o'zgartirayotganini asoslab beradi [8].

Barry Eichengreen (2019) esa raqamli valyutalar va kriptoaktivlarning xalqaro moliya tizimidagi o'rnini tahlil qilib, ularning global kapital oqimlariga ta'siri ortib borayotganini ta'kidlaydi [10]. U kriptoaktivlar an'anaviy moliyaviy instrumentlarga muqobil sifatida shakllanayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dirk A. Zetzsche va hammualliflar (2018) kriptoaktivlar bozorini huquqiy tartibga solish masalalarini o'rganib, ushbu sohada samarali regulativ mexanizmlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi [11]. Ularning tadqiqotida global darajada yagona yondashuvning yetishmasligi asosiy muammolardan biri sifatida qayd etiladi.

⁶⁰ Statista - The Statistics Portal for Market Data, Market Research and Market Studies sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.
<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Campbell R. Harvey (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kriptofaktivlar investitsiya portfelining diversifikatsiya vositasi sifatida baholanadi [12]. Muallif ularning yuqori risk darajasiga qaramay, portfel samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega ekanligini empirik tahlillar orqali asoslab beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda O'zbekistonda raqamli aktivlar bozori davlat tomonidan tartibga solinadigan model asosida rivojlanayotgani qayd etiladi. Milliy istiqbolli loyihalar agentligi tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy baza ushbu bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda [6]. Prezident qarorlari esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab beradi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv asosida bir nechta metodlardan foydalanildi. Statistik tahlil usuli orqali RMA bozorining rivojlanish

dinamikasi, foydalanuvchilar soni va investitsiya oqimlari o'rganildi. Taqqoslash usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi.

Tizimli yondashuv orqali raqamli moliyaviy aktivlar bozori iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida o'rganildi. Analitik baholash metodi yordamida esa bozor rivojlanish istiqbollari va mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi. Ushbu metodlar kombinatsiyasi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar bozori so'nggi yillarda nafaqat jadal rivojlanmoqda, balki iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xususan, fintech va raqamli aktivlar ekotizimining kengayishi investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshilab, yangi moliyaviy instrumentlar paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda.


1-jadval

2019–2025 yillarda O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar bozorining rivojlanish dinamikasi⁶¹

Yil	Bozor hajmi (mln \$)	Foydalanuvchilar soni (ming)	O'sish (%)
2019	50	20	—
2020	80	35	60%
2021	150	70	87%
2022	300	120	100%
2023	500	200	66%
2024	750	320	50%
2025	1100	500	46%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bozor hajmi va foydalanuvchilar soni keskin oshgan. Bu esa raqamli

aktivlarga bo'lgan talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.



⁶¹ <https://lex.uz/docs/5841070> sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

**2-rasm. O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlarning ahamiyati⁶²**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda fintech kompaniyalari soni 2018-yildagi 24 tadan 2025-yilda 100 dan ortiq subyektgacha oshgan bo'lib, bu 4 baravardan ko'proq o'sishni anglatadi⁶³. Bu jarayon raqamli moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiyalashuvi va aholining ularga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, startaplar soni ham keskin oshib, 2025-yilda 750 taga yetgani innovatsion muhit shakllanayotganidan dalolat beradi⁶⁴.

Raqamli aktivlar bozori rivojlanishining muhim jihatlaridan biri — kapital oqimining sezilarli darajada oshishidir. Masalan, venture investitsiyalar hajmi 2023-yildagi 6 mln dollardan 2025-yilda 300 mln dollardan oshib, deyarli 5 baravar o'sgan. Bu esa investorlar tomonidan raqamli aktivlar va fintech loyihalariga yuqori qiziqish mavjudligini ko'rsatadi. Natijada, iqtisodiyotda muqobil moliyalashtirish manbalari kengaymoqda.

Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonlari pul muomalasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, naqd pul ulushi 2025-yil boshiga kelib 19,2% gacha kamaygani, ya'ni iqtisodiyotda naqdsiz hisob-kitoblar ulushi ortib borayotganini anglatadi⁶⁵. Bu esa bevosita raqamli moliyaviy aktivlar va to'lov tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Kriptoaktivlar segmenti ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda ushbu soha davlat byudjetiga 10 mlrd so'mdan ortiq tushum keltirgani, shuningdek, 16 ta litsenziyalangan kripto xizmat provayderlari faoliyat yuritayotgani ushbu bozorning institutsional shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining joriy etilayotgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, raqamli moliya infratuzilmasining rivojlanishi yangi xizmat turlarini ham paydo qilmoqda. Masalan, elektron factoring platformalar orqali 2024-yilda 1,9 trillion so'mlik operatsiyalar amalga oshirilgani biznes uchun likvidlikni tezkor ta'minlash imkonini kengaytirdi. Bu esa kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Yana bir muhim jihat — raqamli moliyaviy aktivlar bozorining umumiy iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqligidir. Moliyaviy sektorning YAIMdagi ulushi 43% dan ortiqni tashkil etayotgani va xorijiy investitsiyalar hajmining 47% ga oshgani bu sohaning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi⁶⁶.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli aktivlar bozori iqtisodiyotda yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratib, kapital oqimini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, fintech sektorining rivojlanishi va startaplar sonining ortishi ushbu bozor bilan bevosita bog'liqdir.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar bozori iqtisodiy rivojlanishning muhim

harakatlantiruvchi omiliga aylanib bormoqda. Ushbu bozorning shakllanishi va kengayishi natijasida moliyaviy resurslarning taqsimlanish samaradorligi ortib, kapitalning harakatchanligi sezilarli darajada kuchaymoqda. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali investitsiya jarayonlarining soddalashuvi kichik investorlar uchun ham moliyaviy bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, qamrab olish darajasini oshirmoqda.

Shuningdek, raqamli moliyaviy aktivlar bozori innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etishni jadallashtirib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirmoqda. Natijada, operatsion xarajatlar kamayib, tranzaksiyalar tezligi ortmoqda hamda iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlari yanada chuqurlashmoqda.

Biroq, bozor rivojlanishi bilan bir qatorda qator tizimli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Eng asosiy muammolardan biri kriptoaktivlarning yuqori volatilligi bo'lib, bu holat narxlarning keskin o'zgarishiga olib keladi. Natijada bozorda qisqa muddatli foydaga yo'naltirilgan operatsiyalar ustunlik qilishi mumkin, bu esa uzoq muddatli barqaror investitsiyalarni cheklaydi va investorlar uchun yuqori risklarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, kiberxavfsizlik tahdidlari ham muhim muammo hisoblanadi. Raqamli platformalarda xakerlik hujumlari, ma'lumotlarning sizib chiqishi va turli firibgarlik holatlari kuzatilishi mumkin. Bu esa nafaqat alohida investorlar, balki umumiy moliyaviy tizim barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir dolzarb masala — aholining moliyaviy va raqamli savodxonligi yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ko'plab foydalanuvchilar yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmasdan investitsiya kiritayotgani noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli, davlat tomonidan puxta o'ylangan va tartibga soluvchi siyosat yuritish zarur. Xususan, raqamli moliyaviy aktivlar bozorining huquqiy asoslarini mustahkamlash, bozor ishtirokchilari faoliyatini nazorat qilish, investorlarni himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or standartlarga moslashish orqali milliy bozorni global moliyaviy tizimga integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli moliyaviy aktivlar bozori katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, uni rivojlantirishda har tomonlama yondashuv asosida institutsional, texnologik va huquqiy islohotlarni izchil amalga oshirish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy aktivlar bozori iqtisodiyotning istiqbolli va tez

⁶² Muallif ishlanmasi.

⁶³ <https://www.uzdaily.uz/en/by-2030-uzbekistan-plans-to-double-fintech-investment-and-join-the-global-fintech-index>

⁶⁴ <https://www.outsource.gov.uz/en/media/uzbekistans-venture-market-investment-growth-new-funds-and-a-strengthening-ecosystem>

⁶⁵ <https://zamin.uz/en/economy/142740-cash-share-reaches-historic-low-in-uzbekistan-central-bank-report.html>

⁶⁶ <https://invest.gov.uz/uz/guide/explore/finance>

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



rivojlanayotgan segmenti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu bozor investitsiya faolligini oshirish, moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

Umuman olganda, raqamli moliyaviy aktivlar bozori O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanishi kutilmoqda.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Yakubova Shamshinur Shuxratovna i.f.d., professor QDTU / Якубова Шамшинур Шухратовна Д.э.н., профессор КГТУ / Shamshinur Sh. Yakubova Doctor of Economics, Professor, KSTU

E-mail: sh.yakubova@tsue.uz

ORCID: 0000-0002-6593-5195

2. Rasulova Ziyoda QDTU magistranti / Расулова Зиеда Магистр специальности Финансы КГТУ / Zieda Rasulova Master of Science in Finance, KSTU

E-mail: rziyoda00@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3545-7841

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. – 2008. – 9 p. (Bitcoin: markazlashmagan elektron to'lov tizimi).

2. OECD. Digital Financial Assets Report. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 145 p. (Raqamli moliyaviy aktivlar bo'yicha hisobot).

3. IMF. Global Financial Stability Report. – Washington: International Monetary Fund, 2021. – 178 p. (Global moliyaviy barqarorlik hisoboti).

4. World Bank. Blockchain and Financial Inclusion. – Washington: World Bank Group, 2020. – 132 p. (Blokcheyn va moliyaviy inkluziya).

5. ECB. Crypto-Assets: Implications for Financial Stability. – Frankfurt: European Central Bank, 2022. – 98 p. (Kriptoaktivlar va moliyaviy barqarorlik).

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy istiqbolli loyihalar agentligi. Raqamli aktivlar bozori haqida. – Toshkent, 2023. – <https://napp.uz>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.

8. Arner D., Barberis J., Buckley R. Fintech and the Future of Finance // Journal of Banking Regulation. – 2017. – Vol. 19, No. 4. – P. 1–15.

9. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World. – New York: Penguin, 2016.

10. Eichengreen B. Globalizing Capital: A History of the International Monetary System. – Princeton University Press, 2019.

11. Zetzsche D.A., Buckley R.P., Arner D.W., Föhr L. The ICO Gold Rush: It's a Scam, It's a Bubble, It's a Super Challenge for Regulators. – Harvard International Law Journal, 2018.

12. Harvey C.R. Crypto Assets and Portfolio Diversification. – Duke University Working Paper, 2021.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz